



TALABALARDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH KOMPENTATSIYASINI RIVOJLANTIRISH.

Anorqulov Baxtiyor Norqul o'g'li

baxtiyoranorqulov94@gmail.com

Guliston davlat universiteti Sport turlarini o'qitish

uslubiyati kafedrası stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11062822>

Annotatsiya

Talaba-yoshlar orasida ommaviy sportni targ'ib qilish hamda talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish borasidagi izlanishlar haqida fikrlar yuritilgan. Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'zining yo'nalishiga qarab, o'quv mashg'ulot, sport musobaqalariga bo'linadi.

Kalit so'zlar: ommaviy sport, tadbir, jismoniy tarbiya, muassasalar, faoliyat, jamiyat, tashabbus, bellashuvlar, yo'nalishlar, talaba-yoshlar

Abstract

Discussions were held on the promotion of mass sports among students and research on the meaningful organization of students' free time. Mass physical education and sports events are divided into educational training and sports competitions depending on their direction.

Key words: mass sport, event, physical education, institutions, activity, society, initiative, competitions, directions, student-youth

Абстрактный

Были проведены дискуссии по вопросам пропаганды массового спорта среди студентов и исследования по содержательной организации свободного времени студентов. Массовые физкультурно-спортивные мероприятия в зависимости от их направленности делятся на учебно-тренировочные и спортивные соревнования.

Ключевые слова: массовый спорт, мероприятие, физическое воспитание, учреждения, деятельность, общество, инициатива, соревнования, направления, студенческая молодежь.

Talaba-yoshlar o'rtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ta'lim muassasalari hayotida katta o'rin egallaydi. Talabalar- yoshlar orasida, professor- o'qituvchilar va oliy ta'lim ishchi-xodimlarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirib, hayotiy faoliyatida ularning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganishiga qiziqishi oshib boradi. O'yinlarning tayyorgarligi va qiziqishi ortib boradi, bellashuvlarga bo'lgan talablari kuchayadi. Ommaviy sport tadbirlari o'zining yo'nalishiga qarab, o'quv mashg'ulot, tashviqot va targ'ibotchi,



sport musobaqalariga bo'linadi. Sport musobaqalari katta foyda beruvchi omillar, sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari demakdir.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Respublikamiz hukumati tomonidan o'quvchi-yoshlarni jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni sport-sog'lomlashtirish ishlariga keng jalb qilish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish, sog'lom turmush tarziga yo'naltirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda [2].

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika va hududiy kalendar rejalari uchun ajratiladigan mablag'lar taqsimlanishi va ishlatilishining to'liq nazoratini amalga oshirish, ular bo'yicha hisobotlarni shakllantirish, sport muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlarini nazorat qilish va ishlatilishi shaffofligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. [3].

Shuningdek mazkur qarorga ko'ra 2023-yil 1-martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy qilinadi: Bunda, birinchi bosqichda — tuman (shahar) musobaqalari; ikkinchi bosqichda — viloyat musobaqalari; uchinchi bosqichda — respublika (final) musobaqalari.

Bunda, ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san'at, intellektual o'yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo'yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida o'tkazilishi ko'rsatib berildi [4,5,6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2022 yildagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201 sonli qarori yuzasidan shunday deyilgan:

Quydagilar ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.



Mahallalarda yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan taminlash, shuningdek imkonyati cheklangan yoshlar uchun sport infra tuzulmasini yaratish.

Aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirib ular o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish orqali, yoshlarni ommaviy sportdagi ulishini oshirish.

Ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanuvchi oilalarga mahallalar va istirohat bog'larida sharoitlar yaratish va oilaviy sportni rag'batlantirish mexanizmlarni joriy etish.

ommaviy sport tadbirlari davomida o'quvchilari g'olib va sovrindor bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari mehnatini munosib rag'batlantirish va ularning faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratish.

Hujjat bilan Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

2022 yildan boshlab har yili an'anaviy tarzda 30 iyun - O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning futbol, mini-futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tenisi, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etiladi:

- birinchi bosqichda - ko'chalararo mahalla musobaqalari;
- ikkinchi bosqichda - mahallalararo sektor musobaqalari;
- uchinchi bosqichda - sektor musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari;
- to'rtinchi bosqichda - tuman (shahar) musobaqalari g'olib mahalla jamoalari o'rtasida viloyat musobaqalari;
- beshinchi bosqichda - viloyat musobaqalarida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari o'rtasida respublika (final) musobaqalari.

2023 yil 1 martdan boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo'yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari o'tkaziladi

Yuqorida ko'rsatilgan musobaqalar davomida g'oliblarni tayyorlagan maktablarning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to'g'ridan-to'g'ri beriladi:

- tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - ikkinchi malaka toifasi;



- viloyat bosqichi musobaqalarida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - birinchi malaka toifasi;
- respublika (final) bosqichida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun - oliy malaka toifasi.

Bu hujjatlar qonun hujjatlari milliy bazasida e'lon qiligan va 11.04.2022 yildan boshlab kuchga kirgan [4]

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarida muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart sharoitlar yaratish sport musobaqalari orqali yoshlarda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, kuchi va imkoniyatiga bo'lgan o'z irodasini mustahkamlash, ularni mardlik vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va Ona vatanga sadoqatini kamol toptirish, yoshlar orasida iqtidorli yoshlarni tanlab olish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga keng miqyosli ishlarni tashkil qilish.

Hozirgi kunda ulg'ayotgan avlod har tomonlama rivojlangan, sog'lom, faol, yuksak unumli mehnat va Vatan mudofaasiga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun yangi-yangi uslub va usullarni qo'llashimiz, o'quvchilarga birinchi navbatda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha nazariy bilim berish, o'rgatish hamda tarbiyalashda ijodiy yondoshishimiz lozim.[7]

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish intimoiy siyosatni muhim bo'lagidan biri etib belgilangan. Sababi sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror topdiradi. Turli xil zarali odatlar va kasaliklarni oldini oladi. Chunki sport yuksak madaniyat, vatanparvalik ruhini ham shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar yurtimizni yuksaklarga ko'tarishi yaqqol misol bo'la oladi.

Foydananilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-3031-sonli qarori.
2. Abdullayev F.T.Ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish [Mant]: o'quv qo'llanma / F.T. Abdullayev Toshkent: Umid Design, 2021. – 124 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida|| 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli farmoni.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-201-son qarori.
5. Abdullayev F.T. Ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish [Mant]: o'quv qo'llanma / F.T. Abdullayev Toshkent: Umid Design||, 2021. – 124 b.
6. Abdullayev F.T., Amanov A.N., Djurayev U. Ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish [Matn]: uslubiy qo'llanma / F.Abdullayev, A.Amanov, U.DJurayev.-T.;, 2022. -110 b.
7. Anorqulov B.N (2024) "Harakatli o'yinlar asosida 9-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifat samaradorligini oshirish" 393-397 b

